

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI
JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti rektori S.Safoyev



2026-yil “27” yanvar

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga
professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish va
lavozimidan ozod etish tartibi to'g'risida
N I Z O M



JIDU Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangan.
(2026-yil 9-yanvardagi 6- bayonnoma)

TOSHKENT - 2026

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga
professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish va
lavozimidan ozod etish tartibi to'g'risida
N I Z O M**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 44-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-iyundagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3795-sonli, 2021-yil 24-dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli, 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 330-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 10 fevraldagi "Oliy ta'lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 20-son qarori hamda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonunchilik va huquqiy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Har tomonlama chuqur nazariy va amaliy bilimlarga, ilmiy yutuqlarga, ijodiy, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyatlar va axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal biladigan, milliy davlatchilik tamoyillariga mos mutaxassislarni tayyorlash bilan shug'ullanishga munosib bo'lgan eng malakali kadrlarni tanlash uchun raqobat muhitini yaratish tanlovning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu nizom Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga professor-o'qituvchilarni ishga qabul qilish jarayonini raqamlashtirish, huquqiy jihatdan tartibga solish, tanlovlarni adolatlilik, shaffoflik va samaradorlik tamoyillari asosida o'tkazishga qaratilgan bo'lib, tanlov asosida ishga qabul qilish va lavozimidan ozod etish tartibini belgilaydi.

II. Tanlovga qo'yiladigan lavozimlar

2. Professor-o'qituvchilar toifasiga kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent), shogird-o'qituvchi lavozimlari kiradi va ularni tanlovdan o'tgan shaxslar egallashi mumkin.

Belgilangan muddat tamom bo'lgandan keyin professor-o'qituvchi lavozimlarini mazkur Nizomga muvofiq tanlov asosida qayta egallash mumkin.

Bir shaxs bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq lavozimga tanlovda qatnasha olmaydi.

Lavozimni egallagan davri bo'yicha professor-o'qituvchilarning mehnat faoliyati samaradorligini baholash "JIDU professor-o'qituvchilari, boshqaruv va xizmatchi xodimlari, shuningdek xorijiy mutaxassislar uchun mehnatga haq to'lash miqdori va samaradorlik mezonlariga asoslangan rag'batlantirish va moddiy qo'llab quvvatlash bo'yicha komissiya" tomonidan har bir semestr yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Professor-o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (KPI) tartibi JIDU Akademik kengashi tomonidan tasdiqlanadi va natijalar kengash majlisida ko'rib chiqiladi.

Homilador ayollar, shuningdek uch yoshgacha bolalari bo'lgan xotin-qizlar egallab turgan lavozimlarga tanlov e'lon qilinmaydi.

Universitetga o'qituvchi lavozimiga soatbay haq to'lash shartlarida ishga kirayotgan shaxslar tanlovsiz, rektor buyrug'i bilan, belgilangan tartibda qabul qilinadi.

JIDU magistratura bitiruvchisi o'qishni tugatgan yilida 1 yil muddatga bo'sh shogird-o'qituvchi lavozimiga tanlovsiz (tajriba-sinov (demo) darsni namoyish qilish orqali) tayinlanishi mumkin.

3. Kafedra mudiri lavozimiga tanlovda fan doktori (Doctor of Science), fan nomzodi (PhD) ilmiy darajalardan biriga yoki professor, dotsent ilmiy unvonlaridan biriga ega bo'lgan mutaxassislar ishtirok etishi mumkin.

kafedra mudiri lavozimiga o'tkaziladigan tanlovda ketma-ket ikki muddatga ishtirok etish mumkin.

Istisno hollarda O'quv-uslubiy kengash tavsiyasiga (kafedraning rivojlanish strategiyasi taqdimotiga) asosan rektor roziligi bilan kafedra mudiri lavozimiga o'tkaziladigan tanlovda uchinchi muddatga ishtirok etish mumkin.

Til kafedralarining mudiri lavozimlariga o'tkaziladigan tanlovda fan ilmiy darajaga (ilmiy unvonga) ega bo'lmagan, biroq kamida 5 yillik ilmiy-pedagogik va amaliy tajribasiga ega bo'lgan mutaxassis qatnashishi mumkin.

4. Professor lavozimiga tanlovda fan doktori (Doctor of Science) yoki fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan mutaxassislar ishtirok etishi mumkin.

Professor lavozimiga tanlovda ishtirok etishlarning soni cheklanmaydi.

5. Dotsent lavozimiga tanlovda fan doktori (Doctor of Science), fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan mutaxassislar ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimiga tanlovda ishtirok etishlarning soni cheklanmaydi.

6. Katta o'qituvchi lavozimiga tanlovda oliy ma'lumotli shaxs (magistr yoki diplomli mutaxassis), shuningdek ilmiy darajaga (PhD) yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan hamda o'qituvchilik, ilmiy-tadqiqot tajribasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

7. O'qituvchi (assistent) va shogird-o'qituvchi lavozimlarini 1 yil muddatga egallash uchun tanlovda tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

8. O'quv jarayonini tashkil qilishdagi zaruratga ko'ra kafedra mudiri, professor va dotsent lavozimlariga nomzodlar tanlov o'tkazilgunga qadar rektor buyrug'iga asosan tegishli lavozimni vaqtincha bajaruvchi (v.v.b.) etib tayinlanishi mumkin. Mazkur lavozimlardan birini ushbu tartibda egallash ko'pi bilan bir yil uchun amalga oshiriladi va ularga tegishli bazaviy lavozim (kafedra mudiri, professor, dotsent) maoshlari miqdorida oylik ish haqi to'lanadi.

III. Professor-o'qituvchilarning lavozimlariga qo'yiladigan malaka talablari

9. Kafedra mudiri lavozimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

–fan doktori (DSc), fan nomzodi (PhD) ilmiy darajalaridan biriga yoki professor, dotsent ilmiy unvonlaridan biriga ega bo'lish (tillarni o'qitishga ixtisoslashgan kafedralar bundan mustasno);

–kamida 4 yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega bo'lish;

–kafedra faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini bilish;

–ingliz tilini mukammal bilish (qo'shimcha chet tillarini biladiganlarga ustuvorlik beriladi);

–kafedra faoliyatini takomillashtirish strategiyasini namoyish (prezentatsiya) qilish.

10. Professor lavozimini egallash uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

–fan doktori (DSc) yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lish;

–kamida 5 yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega bo'lish;

- kafedra faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini bilish;
- dissertatsiya himoyasidan keyingi 3 yilda kamida 3 ta ilmiy maqola (Scopus, Web of Science bazasida) chop etish;
- darslik yoki 2 o'quv qo'llanma nashr ettirish;
- xalqaro e'tirof etilgan nashriyotlarda 1 monografiyani chop qilish;
- 1 nafar shogirdi dissertatsiya ishini (PhD) himoya qilgan bo'lishi,
- ingliz tilini mukammal bilish (qo'shimcha chet tillarini biladiganlarga ustuvorlik beriladi).

11. Dotsent lavozimini egallash uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- fan nomzodi (PhD) yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lish;
- kamida 4 yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega bo'lish;
- kafedra faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini bilish;
- dissertatsiya himoyasidan so'ngi uch yilda kamida 2 ta ilmiy maqola (Scopus, Web of Science bazasida) chop etish;
- darslik yoki o'quv qo'llanmani nashr ettirish,
- kamida 1 monografiyani mahalliy nashriyotlarda chop qilish;
- ingliz tilini mukammal bilish (qo'shimcha chet tillarini biladiganlarga ustuvorlik beriladi).

12. Katta o'qituvchi lavozimiga quyidagi talablar qo'yiladi:

- kamida 3 yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega bo'lish;
- kafedra faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini bilish;
- so'ngi uch yilda kamida 2 ta ilmiy maqola chop etish;
- o'quv yoki uslubiy qo'llanmani nashr ettirish,
- ingliz tilini mukammal bilish (qo'shimcha chet tillarini biladiganlarga ustuvorlik beriladi).

13. O'qituvchi (assistent) va shogird-o'qituvchi lavozimlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- kafedra faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini bilish;
- ilmiy faoliyat bilan shug'ullanish;
- so'ngi ikki yilda kamida 1 ta ilmiy maqola chop etish;
- ingliz tilini mukammal bilish (qo'shimcha chet tillarini biladiganlarga ustuvorlik beriladi).

14. Universitet ixtisoslik sohalari bo'yicha yetakchi ekspertlar, favqulodda va muxtor elchilar, diplomatlar, davlat mukofotlari sovrindorlari, yuqori turuvchi vazirliklar (idoralar) va boshqa tashkilotlarda ishlab katta amaliy tajribaga (kamida 5 yillik mehnat stajiga) ega bo'lgan mutaxassislar JIDU O'quv-uslubiy kengash qaroriga asosan dotsent yoki professor lavozimlariga ishga qabul qilinishi mumkin.

15. Magistraturada pedagogik faoliyatga ilmiy unvon (ilmiy daraja)ga va kamida 3 yillik uzluksiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali professor-o'qituvchilar jalb qilinadi. Ilmiy darajaga (unvonga) ega bo'lmagan, lekin JIDU magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yetakchi mutaxassis bo'lgan shaxslar (14-bandga muvofiq) magistratura dars jarayoniga jalb qilinishi mumkin.

IV. Tanlovlarni o'tkazish tartibi

16. Inson resurslari ofisi tomonidan muddati tugayotgan yoki vakant lavozimlarga har yili may oyida (xorijiy mutaxassislar uchun yanvar oyida) JIDU rasmiy veb sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda tanlov e'lon qilinadi va uning matnida hujjatlarni topshirish uchun Internet havola (link) ko'rsatiladi. Tanlovda qatnashish uchun arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab elektron tarzda 24 ish kuni davomida (xorijiy mutaxassislar uchun 5 oy davomida) qabul qilinadi.

17. Professor-o'qituvchi lavozimlariga **birinchi marta tanlovlarda qatnashayotgan nomzodlar uchun quyidagi tartib amal qiladi:**

–tanlovlar 4 bosqichda (hujjatlarni taqdim qilish, tajriba-sinov darsini (demo darsni) namoyish qilish, intervyuga kirish, tanlov bo'yicha ovoz berish jarayoni) o'tkaziladi;

–e'lon qilingan muddatlarda hujjatlarni (ariza, shaxsiy ma'lumotnoma (obyektivka), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nusxalari, mualliflik ishlari ro'yxati, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalar nusxalari) elektron tizimga PDF shaklida yuklash talab qilinadi va ular qog'oz shaklida qabul qilinmaydi;

–har bir nomzod bo'yicha taqdim qilingan hujjatlar tegishli kafedrada dastlabki ko'rib chiqish jarayonidan o'tkaziladi va ular o'rnatilgan talablarga mos keladigan talabgorlar navbatdagi bosqichga tavsiya qilinadi;

–tegishli kafedra tomonidan belgilanadigan muddatlarda (iyunda) tajriba-sinov darsini (demo dars) o'tkazib beradi;

–tajriba-sinov darsi (demo dars) yuzasidan ijobiy baholangan taqdirda navbatdagi bosqich – intervyuga kirishga tavsiya etiladi;

–akademik va o'qituvchilar ofisi tomonidan e'lon (iyulda) qilingan sana, vaqt va joyda intervyu tashkil qilinadi;

–psixologik test o'tkaziladi;

–intervyu natijalari har bir lavozim uchun kamida 2 nafar nomzod ko'rsatilgan holda tavsiyanoma shaklida rasmiylashtiriladi va komissiyaning oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinib, so'ng JIDU Akademik kengashiga kiritiladi;

–kafedra mudiri, professor lavozimlari bo'yicha JIDU Akademik kengashi majlisida va dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent), shogird-o'qituvchi lavozimlari bo'yicha O'quv uslubiy kengash majlisida har bir nomzodga ovoz beriladi va natijalar majlis o'tkazilgan kunda e'lon qilinadi.

18. Universitetda professor-o'qituvchisi lavozimlarida **ish faoliyatini davom ettirmoqchi bo'lgan mutaxassislar uchun quyidagi tartib amal qiladi:**

–e'lon qilingan muddatlarda hujjatlarni (ariza, shaxsiy ma'lumotnoma (obyektivka), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nusxalari, mualliflik ishlari ro'yxati, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalar nusxalari) elektron tizimga PDF shaklida yuklash talab qilinadi va ular qog'oz shaklida qabul qilinmaydi;

–tanlovlar 3 bosqichda (hujjatlarni topshirish, kafedrada so'ngi bir yillik faoliyat (o'quv-uslubiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar) natijalari taqdimoti, tanlov bo'yicha saylov jarayoni) o'tkaziladi;

–faoliyat natijalari taqdimoti asosida tegishli kafedraning tavsiyanomasi oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va o'qituvchining hisoboti bilan birga JIDU Akademik kengashiga taqdim qiladi. Unda tanlov e'lon qilingan har bir lavozim uchun kamida 2 nafar nomzod ko'rsatiladi.

–Universitetda mehnat faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan talabgorlardan tajriba-sinov darsini (demo dars) o'tkazish va intervyuga kirish talab qilinmaydi;

– tanlov bo'yicha ovoz berish jarayoni o'tkazilgan kunda natijalar e'lon qilinadi.

19. Kafedra mudiri lavozimi uchun quyidagi tartib amal qiladi:

– tanlov 3 bosqichda (hujjatlarni topshirish, O'quv-uslubiy kengash majlisida tegishli kafedraning strategik rivojlantirish dasturini (o'quv-uslubiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, xalqaro hamkorlik) taqdimot qilish, tanlov bo'yicha ovoz berish jarayoni) o'tkaziladi;

– e'lon qilingan muddatlarda hujjatlarni (ariza, shaxsiy ma'lumotnoma (obyektivka), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nusxalari, mualliflik ishlari ro'yxati, malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalar nusxalari) elektron tizimga PDF shaklida yuklash talab qilinadi va ular qog'oz shaklida qabul qilinmaydi;

– kafedrani strategik rivojlantirish dasturi yuzasidan qilingan taqdimot asosida O'quv-uslubiy kengash tavsiyanomasi kamida 2 nafar nomzod ko'rsatilgan holda oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va JIDU Akademik kengashiga kiritiladi.

– JIDU Akademik kengashi a'zolari har bir nomzod uchun yashirin ovoz beradi va ovoz berish natijalari majlis yakunida e'lon qilinadi.

20. Kafedra mudiri va professor lavozimlari uchun tanlov jarayoni JIDU Akademik kengashi majlisida yopiq ovoz berish yo'li bilan o'tkaziladi. Dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) va shogird-o'qituvchi lavozimlariga nomzodlar JIDU O'quv-uslubiy kengashi majlisida ochiq ovoz berish orqali saylanadi. Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan (jami ovozlarning 2/3 qismini olgan) shaxslar tegishli kengash qaroriga asosan buyruq bilan lavozimga tayinlanadi.

21. Bir lavozim uchun talabgorlar soni 5 nafardan ortib ketgan taqdirda tegishli ixtisoslik yo'nalishidagi fanlar bo'yicha test sinovlari dastlabki saralash sifatida o'tkazilishi mumkin.

22. Tanlov e'lon qilingan lavozimni egallab turgan shaxs, kafedra a'zosi hisoblanmaydigan dekan yoki prorektor tanlovda ovoz berishda qatnashmaydi.

23. Har qaysi nomzod bo'yicha Akademik kengash majlisida yashirin ovoz berishni o'tkazishdan oldin tegishli tavsiyanomalar o'qib eshittiriladi.

24. Mazkur lavozim uchun tanlovda qatnashuvchi barcha shaxslarning ismi-sharifi yashirin ovoz berish uchun bitta byulletenga kiritiladi.

Ovoz berish byulletenda ovoz berilayotgan nomzodning familiyasi ro'parasiga tegishli belgi qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi. Faqat bitta nomzod uchun ovoz berish mumkin.

Agar byulletenda ovoz berish uchun birorta ham belgi qo'yilmagan bo'lsa yoki belgi ikki yoki undan ko'p familiyalar ro'parasiga qo'yilgan bo'lsa, u holda bunday byulleten buzilgan hisoblanadi va ovozlarni hisoblashda hisobga olinmaydi.

25. Ovozlarni hisoblash uchun Akademik kengash ovoz berish boshlanishidan oldin tarkibida kengashning kamida uch nafar a'zosi bo'lgan sanoq komissiyasini saylaydi. Sanoq komissiyasi har bir nomzod bo'yicha ovoz berish natijalarini e'lon qiladi.

Sanoq komissiyasining bayonnomasi Akademik kengash tomonidan tasdiqlanadi va tanlov hujjatlariga qo'shib qo'yiladi.

26. Tanlovni o'tkazishda Akademik kengash qarori, agar ovoz berishda kengashning tasdiqlangan (ro'yxatdagi) tarkibidagi a'zolarining kamida 2/3 qismi qatnashgan bo'lsa vakolatli hisoblanadi. Ovoz berishda qatnashgan kengash a'zolarining nisbatan ko'pchilik ovozi olgan nomzod tanlovdan o'tgan hisoblanadi.

Ikkita nomzod qatnashgan tanlovni o'tkazishda ovozlarning soni teng bo'lib qolsa raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Akademik kengash qarori universitet buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

27. Lavozimlarni egallash uchun o'qituvchilarni tanlash bo'yicha kafedra va Akademik kengash majlislari ochiq tartibda o'tadi. Tanlovda qatnashuvchilarga ularning nomzodlari muhokama qilinadigan kafedra va Akademik kengash majlislarida qatnashish yoki ularning xohishiga ko'ra tegishli qaror bilan tanishish huquqi beriladi.

28. Akademik kengash kotibi tanlov natijalari to'g'risida talabgorlarni bir hafta muddatda yozma ravishda xabardor qiladi.

29. Tanlovda qatnashish uchun arizalar taqdim qilinmagan taqdirda, tegishli lavozim bo'yicha tanlov o'tkazilmagan hisoblanadi va tanlov to'g'risida qo'shimcha e'lon beriladi.

V. Mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qilish

30. JIDU professor-o'qituvchilar lavozimlariga birinchi marta tanlovdan o'tgan shaxslar bilan belgilangan 1 yil muddatga mehnat shartnomalari tuziladi va tegishli buyruq bilan ishga qabul qilinadi. JIDU professor-o'qituvchilari faoliyatini baholash natijalariga ko'ra ushbu shartnomaning muddati har bir o'quv yili uchun (jami 2 marta) uzaytirilishi mumkin. Ikki yillik boshlang'ich sinovlardan muvaffaqiyatli o'tganlar bilan navbatdagi 5 yil muddatga tanlov asosida mehnat shartnomasi tuziladi.

31. Universitet professor-o'qituvchilari bilan muddatsiz mehnat shartnomasini tuzish bo'yicha tanlovda ishtirok etish uchun quyidagilar talab etiladi:

- JIDUda kamida 7 yil va undan ortiq mehnat stajiga ega bo'lgan;
- kamida 2 ta o'quv adabiyotlarini (fan sillabusiga mos bo'lgan) nashr qilgan;
- 3 va undan ortiq Scopus, Web of Science bazasiga kirgan ilmiy maqolalarni chop etgan;

- xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarini shaxsan tashkillashtirgan;
- ilmiy-pedagogik kadrlarni (PhD va/yoki DSc) tayyorlagan;
- davlat hokimiyati organlari uchun axborot-tahliliy ma'lumotlar tayyorlagan;
- respublika ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar qilgan;
- ingliz tilini mukammal biladigan (qo'shimcha chet tillarini ham biladiganlarga ustuvorlik beriladi);

-JIDU ichki tartib-qoidalarini buzmagani va intizomiy jazoga tortilmagan bo'lishi lozim.

32. Muddatli tuzilgan mehnat shartnomasini muddatsiz maqomga o'zgartirish masalasi 29-bandda belgilangan talablar bajarilgan taqdirda Akademik kengash (kafedra mudiri, professor lavozimlari) yoki O'quv-uslubiy kengash (Dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) va shogird-o'qituvchi lavozimlari) a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan hal qilinadi va buyruq bilan rasmiylashtiriladi. Muddatsiz tayinlangan professor-o'qituvchi lavozimlari attestatsiyaga jalb qilinmaydi.

33. Professor-o'qituvchi mehnat shartnomasi tuzilgandan keyin ishni boshlash kuni tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi, biroq ushbu muddat bir oydan ortiq bo'lishi mumkin emas. Professor-o'qituvchilarning yozgi mehnat ta'tili davri ushbu muddatga kirmaydi.

34. Universitetda ishlaydigan va tanlov bo'yicha saylangan shaxslarning mehnat shartnomalariga quyidagilar yozib qo'yiladi:

a) ular ilgari egallab kelgan lavozim uchun - mehnat munosabatlarini yangi muddatga uzaytirish to'g'risidagi ma'lumotlar yoziladi va tegishli buyruq chiqariladi;

b) boshqa lavozimlar uchun - tanlovdan o'tganlik to'g'risida tegishli kengash bayonnomasi raqami va sanasi qayd etilgan holda tegishli o'zgartirishlar yoziladi va boshqa lavozimga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqariladi.

35. Professor-o'qituvchilar attestatsiyadan o'tkazilgan taqdirda attestatsiya natijasiga ko'ra, shaxsning tanlovdan o'tganligi va uning muddatidan qat'i nazar, JIDU va professor-o'qituvchilar o'rtasidagi mehnat munosabatlari masalalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal qilinadi.

36. Ilgari egallab kelgan lavozimi uchun tanlovdan o'tmagan, shuningdek tanlovda qatnashish uchun ariza bermagan shaxslar bilan mehnat shartnomasi yangi muddatga tanlovdan o'tmaganligi yoxud tanlovda qatnashishni rad etganligi sababli o'quv semestri tugagandan so'ng mehnat qonunchiligiga muvofiq bekor qilinadi.

37. Kafedralar birlashtirilganda yoki kafedra bo'linganda pedagog xodimlar bo'yicha muddatidan oldin tanlovlar o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Kafedralar birlashtirilgan taqdirda yangidan tashkil etilgan kafedra mudiri lavozimini egallash to'g'risidagi masalani universitet Akademik kengashi oldindan tanlov e'lon qilmasdan, yashirin ovoz berish yo'li bilan hal qiladi.

Kafedra bo'lingan taqdirda uning mudiri saylangan muddati o'tgangacha, rektor buyrug'i bilan yangidan tashkil etilgan kafedralardan birining mudiri lavozimiga tayinlanadi. Boshqa kafedraning mudiri lavozimiga tanlov asosida mazkur nizomga muvofiq mudir tayinlanadi.

38. Universitet rektori tanlov o'tkazilgungacha kafedraning yetakchi o'qituvchilaridan biriga yoki tegishli dekanga bo'sh kafedra mudiri lavozimi bo'yicha vazifalarni bajarishni yuklashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi vakillik organlariga saylanishi natijasida mehnat shartnomasi bekor qilingan o'qituvchi o'z vakolatlari tugagandan keyin tanlov natijalariga ko'ra ilgari saylangan muddati tugagungacha JIDUda ilgari egallab kelgan lavozimiga tanlovsiz tayinlanadi.

39. Talabalardan kelib tushgan e'tirozlar ("Feedback") asosida Universitet rektori Akademik kengashda ko'rib chiqish uchun professor-o'qituvchi(lar)ning egallab turgan lavozimlariga muvofiqligi to'g'risidagi masalani kiritishga haqli. Mazkur masala quyidagi tartibda ko'rib chiqiladi va qaror qabul qilinadi:

–rektorning buyrug'i bilan tasdiqlanadigan, Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektor boshchiligidagi komissiya tarkibi shakllantiriladi;

–komissiya tomonidan tegishli professor-o'qituvchi(lar)ning joriy va o'tgan semestrlar davomidagi faoliyati, ma'ruza yoki seminar (amaliy) mashg'ulotlarni o'tkazish darajasi tahlil qilinadi va talabalarning e'tirozlari ("Feedback") atroflicha o'rganib chiqiladi;

–komissiya o'rganish natijalari yuzasidan yozma xulosani Akademik kengash muhokamasiga kiritiladi;

–Akademik kengash qarori asosida professor-o'qituvchini malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga muvofiq emasligi bo'yicha mehnat shartnomasini bekor qilishga (ilmiy-metodik va tarbiyaviy ishlar samaradorligi past bo'lgan taqdirda) yo'l qo'yiladi.

–Akademik kengash qaroriga ko'ra kafedra mudiri, professor, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent), shogird-o'qituvchi malakasi yetarli bo'lmaganligi sababli egallab turgan lavozimiga yoki bajarayotgan ishiga muvofiq emasligi e'tirof etilsa, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi o'rnatilgan tartibda bekor qilinadi.

Kafedra mudiri bilan tuzilgan mehnat shartnomasi, shuningdek kafedraga rahbarlik qilish bo'yicha o'z funksional vazifalarini bajarmaganligi yoki talab darajasida bajarmaganligi sababli Akademik kengash qaroriga binoan bekor qilinishi mumkin.

40. Universitet professor-o'qituvchilari bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish masalalariga doir mehnat nizolari qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

VI. Xorijiy fuqarolarni professor-o'qituvchi lavozimlariga qabul qilish

41. O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi va yashash guvohnomasiga ega bo'lgan chet el fuqarolariga nisbatan mehnat to'g'risidagi qonunchilikning umumiy normalari tatbiq etiladi.

42. Chet el fuqarolarini JIDU professor-o'qituvchi lavozimlariga ishga qabul qilishda quyidagilar talab etiladi:

–ingliz tilini mukammal biladigan (qo'shimcha chet tillarini biladiganlarga ustuvorlik beriladi);

–top 500ga kirgan oliy ta'lim muassasasi magistraturasini bitirgan yoki PhD diplomini olgan;

–so'ngi uch yilda kamida 1 ta ilmiy maqolani (Scopus yoki Web of Science bazasida) e'lon qilgan;

–h-index ko'rsatkichi 2 dan yuqori bo'lgan;

–tajriba-sinov (demo) darsini muvaffaqiyatli namoyish qilish;

–universitet komissiyasi huzuridagi intervyudan o'tish.

43. O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnoma mavjud bo'lgan taqdirda chet el fuqarolari va JIDU o'rtasida tasdiqnoma muddatiga mos ravishda mehnat shartnomasi tuziladi va unga asosan ishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqariladi.

44. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksida nazarda tutilgan asoslardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnomaning amal qilish muddati tugatilganligi yoki bekor qilinganligi chet el fuqarosi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish uchun asos bo'ladi.

45. O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnoma bekor qilinganda mehnat shartnomasi ish beruvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligining tegishli xabarnomasini olgan kunda bekor qilinishi lozim.

46. O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqiga doir tasdiqnomalar yuqori malakali mutaxassislar yoki malakali chet ellik mutaxassislar uchun, ularning xohishiga ko'ra, tasdiqnoma berilgan kundan boshlab uch yilgacha amal qiladi. Ushbu tasdiqnomalarni cheklanmagan miqdorda uzaytirish mumkin, ammo har bir uzaytirish muddati uch yildan oshmasligi kerak.

47. Yuqori malakali va malakali mutaxassislar O'zbekiston Respublikasi hududida o'rindoshlik asosida ishlash uchun tasdiqnoma olmasdan JIDUda o'rindoshlik asosida ishlashi mumkin.






48. Mehnat shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, yuqori malakali mutaxassislar yoki malakali mutaxassislar 30 ish kuni ichida boshqa ish joyini izlash imkoni beriladi, bu davrda ularga ilgari berilgan tasdiqnoma, viza va yashash guvohnomalarining amal qilish muddatlari saqlanadi.

VII. Yakuniy qoidalar

49. Mazkur nizom tasdiqlangan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

50. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga professor-o'qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish va ularni lavozimdan ozod etish tartibini amaliyotda qo'llash jarayonida yuzaga keladigan nizolar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi.

51. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish JIDU Kuzatuv kengashining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Akademik ishlar bo'yicha birinchi prorektor		A.Umarov
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor		O.Yusupdjanov
Raqamli transformatsiya va iqtisodiy masalalar bo'yicha prorektor		M.Djalalov
Rektor maslahatchisi		A.Turdimatov
Bosh yuriskonsult v.v.b.		F.Tashev